

Date: 17th February-2025

**ADABIYOT DARSLARIDA “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONINI ZAMONAVIY
USULLARDA O‘QITISH**

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi)

Annotatsiya: Maqolada “Go‘ro‘g‘li” dostonining tahliliga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Shoxa-sox-shabba, mirg‘azab-jazo beruvchilarning boshlig‘i, mushk-qora tusli va xush isli suyuq modda, qurandoz- aslida qur‘aandoz, ya’ni qur‘a tashlovchi, gubir-aslida gebernator so‘zining qisqargan shakli, bomaza-mazali, buroq-buroq-bursiq-bursiq, duyum-ikkinchidan, dash-dasht, mag‘ribman-mag‘rib bilan.

Doston o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. «Doston» so‘zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash manolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijoida baxshilar tomonidan kuylanib kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar.

Xalq og‘zaki ijodining turli-tuman janrlari, ayni paytda, xalqning tasavvuri, ijtimoiy-ma’naviy tafakkuri, dunyoqarashi, urf-odatlari va an‘analari, milliy-ma’naviy qadriyatlarining tarixi va oynasidir. Ayniqsa, dostonlarda bunday imkoniyatlar juda katta. O‘zbek xalq dostonchiligidagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi katta o‘rin tutadi. Hozirgacha uning tarkibida 60 dan ortiq doston mavjud. Ularda xalq tarixi, taqdiri, o‘tmishdagi hayoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, axloqiy-ma’naviy hamda badiiy estetik qarashlari o‘ziga xos tarzda aks etgan.

“Go‘ro‘glining tug‘ilishi” dostoni mavzusiga doir testlar

1. “Go‘ro‘glining tug‘ilishi” dostonida Odilxon qaysi yurtning podshohi edi? A) Yovmit B) Mari C) Taka –turkman D) Subyon
2. To‘liboy kim edi? A) Marining podshohi B) Taka turkmanning vaziri C) Qovushtixonning o‘g‘li D) Odilxonning o‘g‘li
3. Qovushtixon qaysi yurtning xoni ? A) Yovmit B) Mari C) Taka –turkman D) Subyon
4. To‘liboy qanday hunar egasi? A) Sinchi B) shoh C) qurandoz D) Vazir
5. Shoxdorbek Gajdumbekka qanday lavozim berdi? A) Sinchi B) Yasovul boshliq C) Qurandoz D) Vazir
6. Odilxonning nechta qizi bor edi? A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
7. Kim Go‘ro‘glining tushiga Bibi Hilol qiyofasida kiradi? A) Xizr B) Bibi Fotima C) O‘z qiyosasida D) Rustambek
8. Xumoroy kim? A) Bibi Hilolning qizi B) Go‘ro‘glining singlisi C) Rayhon arabning qizi D) Ahmadbekning qizi

Date: 17th February-2025

9. Dostonda kim malomatga qolishdan qo‘rqib, yurtiga qaytmaydi? A) Xumoroy B) Bibi Hilol C) Zaydinoy D) Xoljuvon

10. Gajdumbek Ravshanni kimning qo‘lidan sotib oldi? A) Rustambekdan B) Subyondan C) Shoxdorbekdan D) Hamzadan

11. Gajdumbek kimning farzandi? A) Marining podshohi B) Taka turkmanning vaziri C) Qovushtixonning o‘g‘li D) Jig‘alixonning o‘g‘li

12. Shoxdorxon qaysi yurtning xoni ? A) Yovmit B) Mari C) Taka –turkman D) Zargar


Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi asari mavzusi testining javoblari

7-ilova

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
J	A	C	B	A	B	C	A	C	D	D	D	D

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi ” dostonining asosiy mavzusi nimalardan iborat?
2. Yovmit va Zargar yurti o‘rtasida nima uchun urush chiqdi?
3. Dostonda Hiloloy qanday tasvirlangan?
4. Go‘ro‘g‘li qayerda va qanday holatda tug‘iladi?
5. Go‘ro‘g‘liga xos bo‘lgan sifatlarni matn asosida tavsiflang
6. Dostonda Go‘ro‘g‘lini emizgan biya-G‘irot tasviriga munosabat bildiring
7. Rustambek Go‘ro‘g‘liga kim bo‘ladi?
8. Rustamning: “Akasining tuzini yeb edim”, -degan e’tirofidan nimalarni anglaysiz?
9. Asarda “Esli ekan Rustambekning xotini “ degan misra bor, uni sharhlang.
10. Rustambek go‘rdan chiqqan bolaning qiz o‘g‘illagini qanday aniqladi.



Date: 17th February-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.To‘xliyev va boshqalar Adabiyot.(11-sinf va o‘rta maxsus uchun darslik-majmua). O‘zbekiston milliy esklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti T, 2018

